

Date: 27<sup>th</sup> May-2026

„TASAVVUFDA XIRQA KIYISH AN’ANASI VA UNING TARIXIY  
SHAKLLANISHI“

**Mahmudova Xosiyat**

Buxoro davlat universiteti magistranti

mahmudovaxosiyat08.gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tasavvufdagi xirqa kiyish an’anasini, uning paydo bo’lishi va tarixiy shakllanish bosqichlari tadqiq etiladi. Xirqaning dastlab zohidlik, faqirlik va kamtarlik ramzi sifatida yuzaga kelgani, keyinchalik esa tasavvuf tariqatlarida ruhiy silsila va irshod belgisi sifatida shakllangani yoritiladi. Shuningdek, sufiylar tomonidan xirqa kiyishning diniy asoslari sifatida keltirilgan rivoyatlar hamda bu masalaga nisbatan ayrim ulamolar bildirgan tanqidiy qarashlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tasavvufiy manbalar, tarixiy rivoyatlar va mutasavviflarning qarashlariga tayanildi.

**Kalit so’zlar:** tasavvuf, xirqa, tariqat, sufiylik, silsila, murid, rivoyat, sanad, janda, ahli salaf, sunnat, an’ana.

**Аннотация:** В данной статье исследуются традиция ношения хирки в суфизме и этапы её историческая формирования. Освещается, что хирка первоначально возникла как символ аскетизма, бедности и скромности, а позднее стала важным элементом духовной преемственности и наставничества в суфийских тарикатах. Также анализируются предания, приводимые суфиями в качестве религиозного обоснования ношения хирки, и критические взгляды некоторых исламских учёных по данному вопросу. Исследование основано на суфийских источниках, исторических преданиях и взглядах мусульманских мистиков.

**Ключевые слова:** суфизм, хирка, тарикат, духовная преемственность, murid, шейх, аскетизм, духовное наставничество, мистицизм.

**Annotatsion:** This article examines the tradition of wearing the khira in Sufizm and stages of its historical formation. It discusses how the khirqa initially emerged as a symbol of asceticism, poverty, and humility and later became an important element representing spiritual successions and guidance within Sufi orders. The article also analyzes the narrations presented by some Islamic scholars regarding this tradition. The research is based on Sufi sources, historical narrations and the opinions of Muslim mystics.

**Keywords:** Sufizm, khirqa, Sufi order, spiritual chain, murid, shaykh, asceticism, spiritual guidance, mysticism.

**Kirish**

Tasavvuf tarixida ramziy kiyim va tashqi belgilarning o’z ahamiyati bor edi. Ana shunday ramzlardan biri “Xirqa” bo’lib, u so’fiylar orasida zohidlik, faqirlik va ruhiy poklanish timsoli sifatida mashhur bo’lgan. Arab tilidagi “Xirqa” so’zi yamoqli



Date: 27<sup>th</sup> May-2026

yoki eski kiyim ma'nolarini anglatadi. Ayrim manbalarda u "Janda" nomi bilan ham tilga olinadi. Tasavvufiy adabiyotlarda "Xirqa kiydirish" iborasi muridning ma'naviy tarbiya yo'liga kirishi va shayx bilan ruhiy bog'liqligini ifodalovchi tushuncha sifatida qo'llanilgan. Ilk davrlarda xirqa oddiy zohidona kiyim bo'lib, dunyo ziynatlaridan voz kechish va tavoze' belgisi sifatida qaralgan. Keyinchalik esa tasavvuf tariqatlarining shakllanishi bilan u ruhiy silsila

va irshod tizimining muhim unsuriga aylangan. Ayrim so'fiylar xirqa kiyish an'anasini Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasallam va sahobalar hayoti bilan bog'lashga harakat qilganlar hamda bunga oid turli rivoyatlarni keltirganlar.

### **Tadqiqot materiallari va metodologiya**

Arabchada „Xirqa“, o'zbekchada „Janda“ deb nomlangan o'ziga xos kiyim kiyish bir vaqtlar so'fiylar orasida keng tarqalgan. So'fiylarning turli ranglarda yamoq solingan kiyim kiyib, boshqalardan ajralib turishga urinishlari hammaga ma'lum.

So'fiylarning o'zlari bu ishning sunnat ekanligiga da'vo qilishgan va dalil keltirishgan:

-Imom Molik keltirgan rivoyatda Anas ibn Molik (r.a.) quyidagilarni aytadilar:

„Umar ibn Xattob Madinaning amiri bo'la turib, ikki yelkasi orasida ustma-ust yamoq solib olganini ko'rdim“.

-Nabiy sollallohu alayhi vasallamning kavush va kiyimlarini yamashlari haqidagi rivoyat.

-Oysha (r.a) oq-qora yamoqlar solib o'tirganlarida Nabiy sollallohu alayhi vasalam u kishiga:

„To yamoq solmaguningcha, kiyimni almashtirma“ deganlari.

-Ali (r.a)dan quyidagi rivoyatni naql qiladilar:“Ushbu ko'ylagimni yamataverib yamoqchidan ham uyalib ketdim. U menga buni tashlab yubor! Eshagi bor kishi buni eshagiga ham ravo ko'rmaydi“, dedi.

-Sufyoni Savriy (r.a) „Umarning ustida o'n ikki yamoqli izorni ko'rdim deganlar.

Ba'zi bir ahli tariqatlar xirqa kiyish shaxsdan shaxsga birma-bir o'tib kelayotgan silsilaga ega ekanligini aytadilar. Misol tariqasida shayx Sanusiyning xirqaning sanadi haqidagi quyidagi gaplarni keltiramiz:

“U kishi xirqani Hasan Basriyning qo'llaridan kiyganlar. U kishi esa amir ulmo'minin Ali ibn Abu Tolib (r.a)ning qo'llaridan kiyganlar. Ali (r.a) esa avvalgi-yu oxirgilarning sayyidi Muhammad sollallohu alayhi vasallamning qo'llaridan kiyganlar. U zot esa xirqani Ruhul amin vositasi ila Robbul olamindan kiyganlar”.

Ammo bu kabi gaplarga ya'ni qasddan xirqa kiyish haqida hech kimning to'g'ri sanadi yo'q. Aksi o'laroq bunga teskari ma'nodagi ishonchli ma'lumotlar bor.

Imom Shar'oni shayx Najmuddin Kubrodan rivoyat qiladilar:

“Ahli salaflar muridning kiyimiga o'sha kiyimning rangidan boshqa rangda shar'iy hojatsiz yamoq solishni makruh deganlar. Agar kiyim yirtilib ketsa-yu, uning rangidagi mato topilmasa, boshqa rangdagi yamoq solsa, mayli. Salafi solihlar kiyimlariga



Date: 27<sup>th</sup> May-2026

faqatgina zarurat holatlardagina yamoq solganlar.Ular o'zlari uchun nodir holatlardagina haloldan to'liq kiyim topa olar edilar.Shuning uchun ular o'z kiyimlarini turli rangdagi halol mato bilan yamar edilar.Ularning yamoq kiyim kiyishlarining sababi shu".

Jamiyatshunoslik ilmining asoschisi, mashhur olim Abdurrahmon ibn Xaldun:

“Ali sahobalarning ichida o'ziga xos kiyim va holat bilan ajrab turmagan”,degan.

Demak, xirqa kiyish ham, xuddi shataxotga o'xshab, ahli tasavvuf ichida ma'lum vaqt va sharoitga taqalib, asta-sekin yo'qolib ketgan bir odatdir.Shuning uchun ham bugungi kunda so'fiylar orasida xirqa kiyganlarini uchratmaymiz.

### **Tadqiqot natijalari va muhokamalari**

Turli tariqatlarda xirqalar xilma-xil bo'lgan. Masalan **Qodiriya** tariqatida ko'pincha yashil yoki oq rangdagi keng kiyimlar ishlatilgan. Yashil rang Payg'ambar avlodiga va barakaga nisbat berilgan. Xirqa oddiy va kam bezakli bo'lgan. Ba'zi hududlarda salla bilan birga kiyilgan. **Naqshbandiya** tariqatida tashqi libosdan ko'ra ichki poklik muhim sanalgan.Xirqa odatda sodda, to'q rangli va bezaksiz bo'lgan. Markaziy Osiyoda chopon shakliga yaqin ko'rinishlar ham uchragan. “Dilba yor-u dastba kor“ tamoyili sabab haddan tashqari darveshona kiyinish targ'ib qilinmagan. **Mavlaviya** tariqatida oq uzun kiyim, ustidan qora xirqa kiyilgan. Baland kigiz qalpoq ishlatilgan. Samo marosimida qora xirqa yechilib, oq kiyimda qolingan. **Yassaviya** tariqatida junli yoki qalin matodan tikilgan keng kiyimlar kiyilgan. Ba'zan yamoqli xirqa ishlatilgan. Darveshlik va dunyodan voz kechish ramzi sifatida qaralgan. Tasavvufdagi xirqa faqat kiyim emas balki ruhiy silsila, murshid-murid aloqasi va ma'naviy ijozatning ramziy ifodasi bo'lgan. Turli tariqatlarda uning tashqi ko'rinishi farqlansa-da, ma'naviy mazmuni umumiy saqlanib qolgan.

### **Xulosa**

Xirqa kiyish an'anasi dastlab musulmon zohidlarining oddiy va kamtarona hayot tarzini ifodalovchi kiyim sifatida yuzaga kelgan. Vaqt o'tishi bilan u tasavvuf tariqatlarida ruhiy irshod, silsila va muridning shayxga bog'lanishini anglatuvchi ramziy unsurga aylangan. Ayrim so'fiylar xirqani sunnat va ma'naviy meros timsoli sifatida talqin qilib, uning silsilasini Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga bog'lashga uringanlar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- 1.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. „ Tasavvuf haqida tasavvur “ Hilol-nashr - 2016
- 2.Sa'id Havvo. „ Ruhiy tarbiyamiz“ Dorul kutub al-arabiy h.1399
- 3.Muhammad Shayxoniy „Ruhiy tarbiya“, h.1416 ikkinchi nashr
4. Ahmad Amin. „Axloq kitobi“, Maktaba Nahza al-Misriyya , m.1985
- 5.Kamil Yilmaz. „Tasavvuf va tariqatlar“, Ensar nashriyoti, Istanbul m.2000

